

**TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TURLI XIL MATERIALLARGA ISHLOV
BERISHGA ASOSLANGAN MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID
KO'NIKMA VA MALAKALARINI O'QUVCHILARDА SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Rayimqulov Shoxruh Shavkat o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
+998 94 161 68 68

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarining texnologiya fani darslarida turli xil materiallarga ishlov berishiga oid ko'nikma va malakalarini oshirish, ushbu jarayonlarda o'quvchilarimizning oldida shakllantirishimiz lozim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar tahliliy ma'lumotlar bilan ko'rsatib o'tilgaan.

Kalit so'zlar: Umumiy o'rta ta'lim, mabtag, o'quvchi, pedagogik sharoit, xalq xunarmandchiligi.

Hozirgi davrda uzlucksiz ta'lim-tarbiya tizimida, mehnat va kasb-hunar pedagogikasida xalqimizning milliy, ma'naviy, madaniy meroslaridan, qadriyatlaridan, tarixiy yutuqlaridan foydalanishning yo'llarini, pedagogik shart-sharoitlarini belgilash ishi barcha izlanishlarning asosiy yo'naliishlaridan hisoblanadi.

Masalan, zardo'zlik sa'nati, uning vatani qadimgi Yunoniston bo'lib, bu yerda zadogonlar zar, ipak va jun qo'shib to'qilgan kashtali naqshlar tushirilgan kiyimlar kiyishgan. Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo'zlik rivojlana boshlagan. Qadimgi Bobil (Vavilion) o'zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo'lgan.

Keyinroq zardo'zlik qadimgi Bobil bilan yaqin aloqada bo'lgan Eron podsholigi saroyida xam rivojlana boshlagan. Eron shoxlari hamda asilzodalarining kiyimlari ham oltin iplar bilan tikilgan bezaklar va qimmatbaxo toshlar bilan naqshlana boshlagan. Asilzodalar hayotida muhim o'rin egallay boshlagan zardo'zlik Eron orqali asta sekin Afg'oniston, Xindiston, Xitoy va ularga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyo mamlakatlariga tarqala boshlaydi. Har bir mamlakatda u o'ziga xos tarzda shakllangan va taraqqiy etgan.

XIX va XX asrlarda kashtachilik sa'nating bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan qimmatbaho matodan tayyorlangan zardo'zlik kiyimlari katta ahamiyatni kasb etgan. Bu kiyim kechaklar asosan amir saroyidagilarning extiyoji uchun tikilgan.

Buxoro zardo'z ashyolarining deyarli xammasi amir saroyining extiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilgan. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon-qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim hatto eng katta amaldordan birortasi ushbu qimmatbaho kiyimlarni o'ziga buyurtirishga xaqqi yo'q edi. Ular bu kiyimlarni faqat amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. XIX va XX asr boshlarida, ya'ni 1785 yildan to 1920 yilgacha

Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlarning oxirgi sulolasiga taaluqli bo‘lgan zardo‘z kiyimlari hozirgi kunda yodgorlik bo‘lib qolgan.

Amalga oshirilgan ishlardan muayyan natijalar olingan bo‘lsada, bugungi kunda mehnatga tayyorlash ishlarining asosiy maqsadi - har bir o‘quvchining shaxsiy sifatlariga, jamiyat talablariga hamda kasb talablariga mos keluvchi sohani ongli ravishda tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi hal etilgan emas. Muammoning to‘laqonli yechimini topishga to‘sinq bo‘layotgan asosiy holatlardan biri tadqiqotlarning odatda qandaydir tartibda belgilanadigan o‘rtacha olingan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Natijada: o‘quvchiga individual, tabaqalashtirilgan yondoshuv joriy etilmayapti; aksariyat holatlarda quruq so‘zlashuvdan iborat deklarativ metodlar bilan cheklanilmoxda; o‘quvchini qiziqqtirgan va yoki tanlagen kasbi xususiyatlari bilan bevosita tanishishi uchun keng imkoniyat yaratilmayapti. O‘quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo‘llash uchun zarur bo‘ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy birikmalarning mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji to‘g‘risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmagan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda xalq hunarmandchiligidan foydalanishning pedagogik sharoitini tadqiq qilishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

1. Texnologiya darslarida o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalash maqsadida mutafakkir, donishmandlar, olimlar asarlarining tarixiy manbalarida yoritilgan mazmunini o‘rganish, tahlil qilish orqali mazkur sohaning hozirgi davrdagi ilmiy, nazariy poydevorini yaratish lozim.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini texnologiya darslarida xalq xunarmandchiligi asosida tarbiyalash maqsadida xalq hunarmandchiligi sohalarining milliy, mahalliy, hududiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar faol ishtirok etadigan, ya’ni ko‘nchilik, mahsido‘zlik, kosibchilik, pichoqchilik zardo‘zlik, kashtachilik, quroqchilik sohalarini tanlab olib, ularning o‘qitilish jihatlari rivojlantirilishi lozim.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari mazmunini tanlashda o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashda, xalq hunarmandchiligi asoslarini o‘rganishini tarkib toptirish hamda ularga xalq xunarmandchiligini ushbu soha misolida o‘rgatish lozim.

4. O‘quv jarayonida o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashni ta’limning maqsad va vazifalarini belgilashda, albatta, ularning o‘ziga xos pedagogik usullari va vositalarining qo‘llanilishi lozim bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘qishdan tashqari vaqtida ular hayotida katta o‘rin tutadi. Shu sababli bu vaqtini to‘g‘ri tashkil etishda, undan dam olish uchun, oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha shakllardagi darsdan va maktabdan tashqari ishlarning chuqur ichki mohiyati o‘quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag‘batlantirish, individual qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O‘quvchilarning o‘qishdan tashqari ishlariga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg‘ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfda va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali, o‘quvchilarni texnik ijodkorlik

va qishloq xo'jalik tajribachiligiga bevosita jalb etish orqali ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdir

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda amaliyotda keng qo'llanilayotgan metodlarni asosan quyidagi uch guruhga ajratish mumkin.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, mazkur metodga barcha o'quv predmetlari bo'yicha barcha sinflarda murojaat qilish mumkin.

Ushbu metod bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiyalanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Hikoya qilish – o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir. Hikoya qilish davomida o'quvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasliklariga aksincha ular faolliklarini oshirish, diqqatni mavzuga safarbar qilish, hodisa va voqealar ustida fikr yuritish, fikr almashish maqsadida savollar berib borish, ko'rgazmali qurollardan foydalanishga e'tibor berish lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Republikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydeori. -T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoyishi. www.lex.uz
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.www.lex.uz
4. Avazboeva A.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU.1993.
5. AvazboevA.I. Kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma.-Toshkent: TDPU,2007y.
6. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. O'quv qo'llanma. -T.:2003,TDPU
7. Azizzo'jaevaN.N. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogic texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent 2007.
8. Bespalko V.P. Psixologicheskiye osnovi texnologizatsii obucheniye.